

VII. ISTE'MOL BOZORI CHAKANA SAVDO

Tovar aylanmasi

2025- yilning yanvar-dekabrida chakana tovar aylanmasi 30 857,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	30 857,1	108,6	100,0
<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:</i>			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	27 721,7	108,9	89,8
undan fuqarolarning xususiy mulki	3 135,4	106,7	10,2












Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 12349,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,9 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 15372,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,1 foizga o'sdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
Chakana tovar aylanmasi	30 857,1	108,6	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
savdo korxonalari	12349,5	113,9	40,0
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	15 372,2	105,1	49,8
<i>shundan:</i> uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	3 135,4	106,7	10,2




Uyushmagan savdo tovar aylanmasi


<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>761,4 mlrd. so'm</p>  <p>54,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>225,7 mlrd. so'm</p>  <p>16,0 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>62,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>104,4 mlrd. so'm</p>  <p>7,4 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>45,1 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>38,1 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>62,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,4</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>48,0 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>16,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>18,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,3 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>3,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>25,4 mlrd. so'm</p> <p>1,8 %</p>




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 410,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (761,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: chorva (parranda) bozorlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1195,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 1195,4 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 450,1 mlrd. so'mni, otlar 70,7 mlrd. so'mni, parrandalar 6,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichlarda o'z aksini topgan:

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacha bo'lgan vosh mollar
758,8 mlrd. so'm	334,6 mlrd. so'm	101,7 mlrd. so'm
 44,0 %	 19,4 %	 5,9 %

Qo'ylar	Otlar	Echkilar
262,1 mlrd. so'm	70,7 mlrd. so'm	188,0 mlrd. so'm
 15,2 %	 4,1 %	 10,9 %


Kurka, o'rdak, g'oz	Tovuqlar	Quyonglar
1,7 mlrd. so'm	5,2 mlrd. so'm	1,7 mlrd. so'm
 0,1 %	 0,3 %	 0,1 %



Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 159,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,1 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1358,0 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 90,3 %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 8 801,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 110,3 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Umumiy ovqatlanish sohasining savdo tovar aylanmasi 21 504,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,7 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,3 foiz bo'lib, 8 389,4 ming so'mni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 30 857,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,6 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 1 529,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 130,7 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 10 819,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,9 %), jismoniy shaxslarning savdo tovar aylanmasi 18 570,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 3135,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,7 %) tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo'lgan Qarshi shahri (viloyat bo'yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi (26,1 %), Chiroqchi (8,2%), Koson (8,1 %), Shahrisabz shahri (8,0 %), Qamashi tumanlari (6,6 %), Kitob (5,3 %) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 1 529,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 130,7 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 29 327,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,7 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,0 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,
(jami nisbatan foiz hisobida)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<i>yirik korxonalar (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>	<i>kichik tadbirkorlik (mlrd.so‘m)</i>	<i>o‘tgan yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
Qashqadaryo viloyati	1 529,7	130,7	29 327,3	107,7
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	546,6	78,8	7 503,0	110,5
Shahrisabz sh.	84,8	123,5	2 391,8	109,7
<i>tumanlar:</i>				
G‘uzor	69,8	8,0 m.	1 155,4	103,6
Dehqonobod	16,3	195,0	881,6	106,3
Qamashi	89,7	5,3 m.	1 936,5	104,3
Qarshi	22,4	131,5	1 206,9	108,3
Koson	148,9	2,7 m.	2 354,8	106,1
Kitob	29,0	189,1	1 595,2	109,0
Mirishkor	8,5	125,6	954,3	106,6
Muborak	56,4	17,1 m.	779,2	106,9
Nishon	10,2	131,4	1 073,5	107,2
Kasbi	11,6	121,0	1 095,4	106,9
Ko‘kdala	70,5	124,5	871,9	107,6
Chiroqchi	65,5	134,5	2 456,7	109,2
Shahrisabz	135,8	3,7 m.	822,3	98,7
Yakkabog‘	35,5	2,3 m.	1 342,5	105,1

2025- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘sish sur‘ati bo‘yicha Qarshi shahri (110,5 %) ,Shahrisabz shahri (109,7 %), Chiroqchi tumani (109,2 %), Kitob tumani (109,0 %), Qarshi tumani (108,3 %), Ko‘kdala tumani (107,6 %), Muborak tumani (106,9 %) yuqori darajada bo‘ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,0 foizni tashkil etib, yirik korxonalarning eng katta ulushi Shahrisabz tumanida (14,2 %), Ko‘kdala tumani (7,5 %), Muborak tumani va Qarshi shahrida (6,8 %) kuzatildi.